

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 11. November 2024

**TA`LIMDA TALABALARING KREATIV FIKRLSH SIFATLARINI
RIVOJLANTIRISH**

Yodgorova Sehriyo

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya. **Ushbu maqolada** talabalarning kreativlik sifatlarini rivojlantirish imkoniyatlari bayon etilgan. Shu bilan birga talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirish bosqichlari hamda kreativ sifatlar ilmiy-nazariy asoslari ham yoritilgan.

Аннотация. В данной статье описаны возможности развития творческих способностей учащихся. При этом также освещены этапы развития творческих качеств у студентов и научно-теоретические основы творческих качеств.

Annotation. This article describes the possibilities of developing students' creativity. At the same time, the stages of development of creative qualities in students and the scientific and theoretical foundations of creative qualities are also covered.

Tayanch so‘zlar: kreativlik, ijodiy faoliyat, amaliy kreativ fikrlash ko‘nikmalari, kreativ sifatlar.

Kirish. Mamlakatimiz ta‘lim tizimini rivojlangan mamlakatlar ta‘lim jarayonlariga moslashtirish, xalqaro baholash dasturlarida talabalarimizni faol ishtirokini ta‘minlash, Milliy o‘quv dasturlarini joriy etishga katta e‘tibor qaratilmoqda. O‘qituvchi ta‘lim-tarbiya sohasidagi islohotlarni amalga oshiruvchi asosiy shaxs bo‘lib hisoblanadi. Islohatlarning sifati va samaradorligi o‘quvchining ijodkorligi, faolligi, izlanuvchanligiga bog‘liqdir. Ta‘lim jarayonida mas’uliyat bilan yondashadigan, bilimdon, mahoratli, , yuksak shaxsiy fazilatlarga ega hamda dunyoqarashi keng, kreativ-mantiqiy fikrlaydigan o‘quvchilar soni ortib bormoqda. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilgan darslar jarayonida o‘quvchi kreativ fikrlash, mustaqil izlanish, muammolarni hal etish, qaror qabul qilish va hamkorlikda ishlashga o‘rganadi.

Bugungi kunda jahonda ta‘limga kreativ fikrlash asosida bitiruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish, pedagog kadrlarning kreativ sifatlarini rivojlantirish orqali ijodiy ta‘lim jarayonini loyhalashtirishning zamonaviy metodik ta‘minotini yaratish, talabalarda kasbiy faoliyat sohalariga yo‘naltirilgan kreativlik qobiliyatlarini

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

rivojlantirish, shuningdek oliy ta’limning ta’lim sifatini ta’minlash jarayonidagi ijtimoiy rolini oshirish masalalari dolzarb yo‘nalishlardan biri sifatida tadqiq etilmoqda. Ana shu nuqtai-nazardan ilg‘or xorijiy tajribalar asosida zamonaviy ta’lim mazmunini modernizatsiyalash, innovatsion ta’lim muhitini shakllantirish, interfaol o‘qitish metodlari va texnologiyalarini amaliyatga keng tatbiq etish asosida talabalarda kreativlik qobiliyatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini yanada takomillashtirish muhim o‘rin tutadi.

Pedagog olimlardan O.Musurmonova, N.Egamberdiyeva, E.Yuzlikayeva, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonovalarning ilmiy izlanishlarida talabalarda kreativlik sifatlarini rivojlantirishning o‘ziga xos jihatlari, kreativlik sifatlarini rivojlantirishga ta’sir etuvchi ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi, shuningdek, talabalarda tanqidiy, kreativ tafakkurni shakllantirish yo‘llari va shakllari mavjuddir

So‘nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta’lim tizimida talabalar kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e’tibor qaratilmoqda. Buni Bronson, Merriyman (2010 y.), Ken Robinson (2007 y.), Fisher, Frey (2008 y.), Begetto, Kaufman (2013 y.), Ali (2011 y.), Treffinger (2008 y.) va b. tomonidan olib borilgan ko‘plab tadqiqotlar, ularning natijalarian ko‘rish mumkin. Patti Drapeau nuqtai nazariga ko‘ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o‘quv topshirig‘i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko‘plab g‘oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to‘g‘ri g‘oyaga asoslanishni ifodalaydi.

Talabalarning kreativ fikrlash sifatlarini rivojlantirish bo‘yicha bir qancha uslublar va nazariy asoslar mavjuddir. Talabalarning kreativ fikrlash sifatlarini rivojlantirishning quyidagi asoslari mavjuddir:

Motivatsiya

- Talabalarni ijodiy fikrlashga rag‘batlantirish va ularning g‘oyalarini qadrlashni o‘rgatish.

Fikr almashish

- Talabalarni o‘zaro fikr almashishga, tanqidiy baho berishga va bir-birlaridan o‘rganishga undash.

Ochiq savollar

- O‘qituvchilar ochiq savollar berish orqali talabalarni chuqur fikrlashga va ijodiy yondashuvlarga undashlari zarur.

Innovatsion loyihalar

“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC INNOVATIVE RESEARCH”

Volume 11. November 2024

- Talabalarga o‘z ijodiy loyihalarini amalga oshirish imkoniyatlarini berish, bu esa ularga o‘z g‘oyalarni sinab ko‘rish va rivojlantirishga yordam beradi.

Kreativ fikrlashni rivojlantirish jarayoni, talabalarni kelajakda muvaffaqiyatli bo‘lishlariga tayyorlaydi va ularni innovatsion fikrlashga o‘rgatadi. Bu jarayon nafaqat akademik muvaffaqiyatga, balki shaxsiy rivojlanishga ham hissa qo‘sadi.

Kreativ fikrning shakllanish bosqichlari:

1-bosqich: Psixologiya, falsafa, estetika kabi fanlar (turkum fanlar)ning nazariy-metodologik asoslarini o‘zlashtirish.

2-bosqich: O‘zlashtirilgan nazariy bilimlarni uzlukli va uzlucksiz pedagogik amaliyot davrida, shuningdek, amaliy mashg‘ulotlar va mustaqil ta’lim jarayonida amaliyotga tadbiq etish ko‘nikmalarini hosil qilish.

3-bosqich: Mustaqil ravishda o‘qib-o‘rganish va ijodiy izlanish asosida hosil qilingan amaliy ko‘nikmalarning malakalarga aylanishiga erishish. Kreativ fikrlash har bir ijtimoiy sohada yaqqol aks etishi mumkin hamda kreativ fikrlash sifatlarini o‘z ichiga olgan jamiyat rivojlanish ham tezlashadi.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, xulosa qilish mumkinki, talabalarning pedagogik ehtiyojlari, qiziqishlari, alohida ahamiyatga ega bo‘lgan yo‘nalishlarini tizimli tarzda o‘rganish lozim. Shuningdek, talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g‘oyalarni, konsepsiylar hamda ilg‘or pedagogik tajribalar asosida o‘qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunli faoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI:

1. Maxamatova, F. (2020). Педагогика фанини ўқитиши жараёнида муоммоли ўқитиши технологияларидан фойдаланиш. Архив Научных Публикаций JSPI.

2. Maxamatova, F. (2020). Оилада фарзанд маънавий тарбиясига ру?ий таъсиirlар. Архив Научных Публикаций JSPI.

3. Exsonova F.T. O‘quvchilarda kreativ tafakkurni rivojlantirish yo’llari Uzluksiz ta’l im. – Toshkent, 2018

4. С. Н.Аллаярова Г.А.Абдуллаева. Тарбия жараёни сифатини квалиметрик мониторинг қилиш: муаммо ва ечимлар. Современное образование. Toshkent-2019

**“CONFERENCE OF NATURAL AND APPLIED SCIENCES IN SCIENTIFIC
INNOVATIVE RESEARCH”**

Volume 11. November 2024

5. Yodgorova S. Keyslar asosida mantiqiy va kreativ fikr yuritish imkoniyatlarini rivojlantirishning uslubiy asoslari. Ilm-fan va innovatsiya. Ilmiy-amaliy konferensiya. <https://in-academy.uz/index.php/si/article/view/17435>.

6. Yodgorova.S. Ta’lim jarayonida kreativ fikrlash imkoniyati va uning namoyon bo‘lishi. Scientific Journal Impact Factor (SJIF): 5.938. ISSN: 2181-3523 VOLUME 2 | ISSUE 23 | 2023

7. Fafforov. Я.Х. Мактаб ислоҳати ва ўқитиш методларини таомиллаштириш. Science and education. Sgientific Journal. 2020, 482.



**Research Science and
Innovation House**